

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



2024-yil

08.00.09 – JAHON IQTISODIYOTI IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA “MUTAXASSISLIK” FANIDAN QABUL
IMTIHONI DASTURI

Toshkent – 2024

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2 - sonli bayonnomasi)..

Tuzuvchilar:

Sh. Ermamatov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

M. Vaxidova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

Z. A. Qodirova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ch. Q. Husanov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

«Jahon iqtisodiyoti» fanining mazkur dasturi O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonuni va iqtisodchi mutaxasislar tayyorlash bo‘yicha davlat standartlari talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Ushbu dastur iqtisodiyot nazariyasi fanining mantiqiy tuzilishidan kelib chiqib, to‘rt bo‘limga ajratildi va har bir bo‘limga oid nazariy masalalarini yoritishda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablari bilan uzviy bog‘liqliqda olib qaraldi. Mavzularga tegishli muammolar milliy g‘oya va milliy mafkura talablari, milliy iqtisodiyot xususiyatlari va milliy manfaatlarni hisobga olish nuqtai nazardan ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarida ochiq iqtisod poydevorini barpo etish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy, tashkiliy zaminlar yaratildi. Tashqi faoliyat sohasidagi milliy iqtisodiy yo‘l-yo‘riqlar jahon tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqildi. Jahon tajribasi esa shundan dalolat beradiki, har tomonlama rivojlanishni istagan har qanday davlat muayyan tamoyillarga amal qilmog‘i shart. O‘zbekiston ham o‘z navbatida tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini shakllantirib oldi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni muvaffaqiyatli olib borish masalasi o‘z navbatida davlatning turli ehtiyojlarini qoplash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni sog‘lomlashtirish, uning samaradorligini oshirishda muhim vositalardan biri hisob-lanadi va millat ravnaqini jadallashtiradi, oqibatda davlat kuch-qudratining yuksalishiga, aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tuzilishi, ko‘lami sherik mamlakatlardagi, umuman, jahon xo‘jaligidagi ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarining qay darajada ekanligiga qarab belgilanadi.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining qaror topishi, rivojlanishi xalqaro mehnat taqsimoti keng tus olayot-ganligi, dunyo mamlakatlari moddiy va ma’naviy boylik-larini hamkorlikda ishlab chiqarish jarayoniga tobora ko‘proq jalb etilayotganligi bilan bevosita bog‘liqidir. Xalqaro miqyosda (shuningdek, alohida bir davlat doirasida) moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish, ularning taqsimoti, ayrboshlanishi, iste’moli jahon (yoki mamlakat) istisodining asosini tashkil etadi. Umumjahon qayta (takror) ishlab chiqarish jarayonidagi ana shu qayd etilgan bosqichlarning har biri ham umumiyligi miqyosda, ham alohida mamlakatlar doirasida butun jahon xo‘jalik tizimining faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Takror ishlab chiqarish jarayonining bir butunligini tashkil etuvchi halqalarining mantiqi ham, Umumjahon takror ishlab chiqarish jarayonidagi har bir bosqichning zarralarini o‘ziga jo qilgan jahon iqtisodining murakkabligi ham ana shunda.

"Jahon iqtisodiyoti" fanining predmeti bozor iqtisodining ob‘yektiq qonunlari asosida o‘zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan milliy xo‘jaliklar yig‘indisidan iborat jahon iqtisodiyoti rivojinining asosiy jarayonlari, uning tamoyillari va qonuniyatlarini o‘rganishdir.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, "Jahon iqtisodiyoti" fani "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Davrning global muammolari", "Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti", "Jahon iqtisodiyoti geografiyasi" singari boshqa maxsus fanlar shug‘ullanadigan bir qancha masalalarini ham qamrab oluvchi o‘quv fanidir. Negaki, "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" ixtisosligiga oid

barcha mutaxassislik fanlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanib, "Jahon iqtisodiyoti" fanidan kelib chiqqan, ma’lum darajada xalqaro iqtisodiy aloqalar va o‘zaro munosabatlar tizimining u yoki bu jihatini aks ettiradi.

Jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar yoki tashqi iqtisodiy aloqlarning biror amaliy jihatlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar xilma-xil va ayni paytda o‘zaro bog‘langan, biri ikkinchisini to‘ldirib turadigan masalalarga duch kelishadiki, bu narsa har ikkala fanning bir butunligidan, mushtarak ekanidan dalolat beradi. Shunga ko‘ra, ularni izchil o‘rganishlik xalqaro iqtisod masalalarini puxta o‘zlashtirib olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturning maqsadi:

- talabgorning Jahon iqtisodiyoti bo‘yicha barcha bosqichlarda uzviy va uzlusiz tarzda olgan bilimlarini tekshirish va baholash;
- O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini, sivilizatsion jarayonlarga qo‘shgan ulkan hissani bilish va o‘z faoliyatida bu bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarini aniqlash va baholash;

Dasturning vazifalari:

- PhDga qabul imtihonini ratsional va samarali tashkil qilish;
- talabgorlarning bilim darajalarini me’yoriy talablar doirasiga qanchalik javob berishini aniqlash;
- talabgorlarning bilimini hayotga tatbiq etish salohiyatini o‘rganish;

PhDga talabgorlarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

- Jahon xo‘jalignining mohiyati, shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.
- Jahon iqtisodiyoti bo‘yicha bilim, tasavvur va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;
- Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon sivilizatsion jarayonlardagi o‘rnini keng va atroficha tushunish;
- Jahon iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan iqtisodiy o‘zgarishlarni taxlil qila olish;
- Jahon inqirozi sabablari va oqibatlarini to‘g‘ri talqin qilish;
- Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va rivojlanish bosqichlarini bilish;
- Jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarini bilish;
- Jahon xo‘jalignining umumbashariy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bilish;
- Xalqaro iqtisodiy integratsiya qonuniyatlari va rivojlanish bosqichlarini bilish.

PhDga kirish imtihoni savollarining mazmuni

“Jahon iqtisodiyoti” fanidan tayanch doktoranturaga kirish imtihoni savollarining mazmuni O‘zR OO‘MTV tomonidan joriy etilgan standart va boshqa me’yoriy xujjalalar asosida shakllantiriladi.

Jahon iqtisodi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy bosqichlari va tamoyillari

Jahon xo‘jalignining belgilari, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishini belgilovchi omillar. Jahon xo‘jaliq taraqqiyotining iqtisodiy qonuniyatlari. Jahon xo‘jaliq, ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining tenglashish jarayonlari. Jahon xo‘jalignining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari. Jahon

xo‘jaligi sub’ektlari. Jahon xo‘jaligi rivojlanishining markazlari. Yettilik, yigirmatalik mamlakatlar rahbarlari sammiti va jahon iqtisodiyotining rivojlanish muammolari. Jahon xo‘jaligi taraqqiyotining hozirgi bosqichi xususiyatlari. Milliy iqtisodiyot va jahon xo‘jaligi. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligining kuchayib borishi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: mohiyati, ko‘rsatkichlari va harakatlantiruvchi kuchlari. Xalqaro moliya institatlari va jahon iqtisodiyotini tartibga solish. Davlatlarning ko‘p tomonlama hamkorligi. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik tizimining yaratilishi. Yangi xalqaro iqtisodiy tartib va uni ta’minlash yo‘llari. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning konseptual jihatlari va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon ho‘jaligiga integratsiyalashish yo‘llari. O‘zbekistonda ochiq iqtisodiyotnint yaratilishi, afzallikkleri va ko‘rsatkichlari. O‘zbekiston Respublikasi va horijiy mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish shakllari va ustivor yo‘nalishlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish yo‘nalishlari. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi va o‘rta muddatda rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishning konseptual asoslari.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va jahon bozori

Xalqaro mehnat taqsimoti: tamoyillari va shakllari. Xalqaro ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi. Xalqaro kooperatsiya aloqalarining rivojlanish darajasi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va ob’ektiv asoslari. Integratsiya va ishlab chiqarishning baynalmilashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Makro va mikro darajadagi integratsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik. Xalqaro iqtisodiy integratsiya qonuniyatlari va rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiy hamkorlik - xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlangan shaklidir. Jahonning yirik xalqaro iqtisodiy integratsion guruhlari. Mustaqil davlatlar hamdo’stligining iqtisodiy hamkorligi. Markaziy Osiyo mamlakatlari integratsiyasi. Shanxay hamkorlik tashkiloti. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlari. Jahon mamlakatlari iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari. Xalqaro savdo-sotiq. Jahon bozori va uning ishtirokchilar. Jahon bozori turlari. Jahon tovarlar va xizmatlar bozori. Intellektual tovarlar, ilmiy texnikaviy ishlanmalar bozori, mehnat bozori, moliya bozori. Jahon moliya bozorining rivojlanish qonuniyatlari va uni tartibga solishni takomillashtirish yo‘llari. Xalqaro ishlab chiqarish xarajatlari va jahon narxlari. Mamlakatimizda eksportga mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlash yo‘nalishlari. Jahon bozorida narxlarning shakllanish xususiyatlari. Noekvivalent almashuv, savdo to‘siqlari, proteksionizm va demping siyosatlari. Eksport va import siyosati. Bojxona siyosati. Xalqaro marketing. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning amal qilishi va jahon bozorining rivojlanish xususiyatlari.

Proteksionizm siyosati va shakllari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida proteksionizm siyosatini amalgalash oshirish xususiyatlari.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining borishi. Ishlab chiqarishni baynalmilallahuvi va chuqurlashuvi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvida TMKlarning roli. Kapitalning baynalminallashuvini chuqurlashuvi. Xalqaro kapital harakatining o'sishida, to'g'ri investitsiyalar va fond bozorlari. Ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy texnologik bilimlar almashuvi. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv. Ishlab chiqarish resurslarining xalqaro miqyosda joylashuvida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi.

Jahon iqtisodi internatsionallashuvining mohiyati va uning asosiy bosqichlari

Jahon xo'jaligining internatsionallashuvi - mehnatni xalqaro taqsimlashni har tomonlama rivojlantirishga asoslangan turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi va bir-birining kam-ko'stini to'ldirishni chuqurashtirish jarayonidir.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, xo'jaliklarning internatsionallashuv jarayonlari ayrboshlash sohasiga borib taqaladi. Chunonchi, savdoda m&hsulotlarni ayrboshlash bosqi-chidan keyin hududiy xalqaro bozorlarga yo'l ochilgan. Ancha keyinroq, dastlabki sarmoya yig'ish davriga kelib, tarmoqlararo savdoning hududiy markazlari yagona jahon bozoriga aylana borgan.

Ma'lumki, tadrijiylik (evolyusiya) mantig'i (buni jahon kapitalistik bozorining yuzaga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan sanoatdagi tub burilish asosida va sanoatni rivojlantirishda jonbozlik ko'rsatganlar uchun o'ziga xos "mezon" hisoblanmish Yevropa misolida ko'rish mumkin) ayrboshlash sohasidagi internatsionallashuvdan kapital va ishlab chiqarishning internatsionallashuviga olib keldi.

Kapitalning xalqaro harakatidagi yangi tendensiyalar

Kapitalning xalqaro harakati — kapitalni chet elda, foyda olish maqsadida joylashtirish va ishlatishdir.

Bunda "kapital" termini zamirida faqat ishlab chiqarish omili sifatida kapitalning o'zi emas, qisman mehnat, yer, tadbirkorlik qobiliyati ham tushuniladi, chunki chet elda kapital sarflanganda ularni bir-biridan ajratish anchayin qiyin. Chet elga kapital chiqarish (kapital olib chiqish) shunday bir jarayonki, uning davomida bir mamlakatning milliy muomalasida bo'lgan kapitalning bir qismi chiqarib olina-di, turli shakllarda (mahsulot, pul) ikkinchi bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga, muomalasiga kiritiladi. Kapitalning xalqaro harakati mamlakatlar o'rtasidagi kapitallar migratsiyasidan iborat bo'lib, o'z egasiga daromad keltiradi. Kapitalning harakat shakllari

Kapitallar chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- 1)Xususiy va davlat kapitallari shaklida;
 - 2)pul va tovar shaklida;
 - 3)qisqa muddatli (odatda bir yilgacha), o'rta va uzoq muddatli shakllarda;
 - 4)ssuda va tadbirkorlik kapitallari shaklida.
- Sudxo'rlik shaklidagi kapital (ssuda kapitali) mulk

egasiga ko‘pincha qo‘yilgan pul, zayom va kreditlar bo‘yicha foiz shaklida, tadbirkorlik shaklidagi (tadbirkorlik kapitali) kapital esa foyda tarzida daromad keltiradi. Bularni bat afsilroq ko‘rib chiqaylik.

Kapitalning chet elga chiqishiga asosiy sabab uning o‘z mamlakatida — donor mamlakatda nisbatan ko‘pligidir. Bu hol yanada ko‘proq daromad topishga, kapitalny chet elga joylashtirish natijasida ham dividend, ham foiz shaklida foyda olishga imkon beradi.

Chet elga kapital joylashtirish o‘z xususiyatlari va shakllariga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin:

Chunonchi, kelib chiqish manbalariga qarab, ular odatda: davlat kapitali va xususiy kapitalga bo‘linadi.

Xalqaro tajribada davlat tomonidan joylashtirilgan kapital rasmiy deb ham ataladi; bu kapitallar davlat budgeti mablag‘i hisobidan bevosita hukumatning, yoxud hukumatlararo tashkilotlarning qaroryga binoan chetga chiqariladi yoki chetdan olinadi.

Bular davlat zayomlari, qarzlari, grantlari (ehsonlari), yordam tariqasida bo‘lib, ularning xalqaro harakati hukumat-lararo bitimlar orqali belgilanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladigan (kredit) qarzlar va bo‘lak mablag‘lar (masalan, XVJ qarzlari) ham shular qatoriga kiradi.

Xususiy kapital nodavlat manbalardan olingen mablag‘ bo‘lib, xususiy shaxslar (yuridik yoki jismoniy) tomonidan chetga chiqariladi yoki chetdan olib kelinadi. Investitsiyalar, savdo qarzlari, banklararo qarz berishlar shular jumlasidandir; bularning bevosita davlat budgetiga aloqasi yo‘q, ammo hukumat bularning harakatini o‘z vakolati doirasida nazorat kdlishi x^mda tartabga solishi mumkin. Amalda ba’zan davlat mablag‘larini xususiy investitsiyalarga aylantirishdek nozik o‘yinlar ham uchrab turadi. Chet elga kapital joylashtirish usuli o‘z mudsatiga ko‘ra, uch xil ko‘rinishga ega:

- 1) qisqa muddatli (bir yilgacha); » 2) o‘rta muddatli;
- 3) uzoq muddatli.

15 yildan ko‘proq muddatga joylashtirilgan kapital uzoq muddatli hisoblanadi. Katta miqsorda qo‘yilgan kapitallar ana shu toifaga kiradi, tadbirkorlik kapitalining bevosita va bilvosita shaklidagi barcha investitsiyalari (ko‘pincha xususiy), ssuda kapitali (davlat va xususiy kreditlar) uzoq muddatli hisoblanadi.

Chet elga qo‘yilgan kapitallardan qanday foydalanishga qarab, qarzga beriladigan, tadbirkorlik uchun degan nomlar bilan ikkiga bo‘linadi.

Bularning birinchisi foiz shaklida, daromad olish maqsa-dida qarzga mablag‘ berish, demakdir. Bu sohada davlat va xususiy manbalardan keladigan kapitallar ancha faol ishtirok etadi.

Tadbirkorlik investitsiyalari bevosita yoki bilvosita ishlab chiqarishga joylashtiriladi va ular dividend shaklida daromad olish huquqini beradi. Bu o‘rinda ko‘pincha xususiy kapital nazarda tutiladi.

Tadbirkorlik maqsadida joylashtirilgan kapitallar o‘z oldiga qo‘ygan vazifasiga ko‘ra ikki toifaga: bevosita va bilvosita (portfel) investitsiyalarga bo‘linadi. Bularning birinchisida kapital uzoq muddatli manfaatni ko‘zlab

joylashtiriladi va mulkdorlik huquqi yoki boshqaruvdagi hal etuvchi xuquklar yordamida maqsadga erishilada. Bevosita chet el investitsiyalari asosan xususiy tadbirkorlik kapitalidan iborat.

Ikkinchi toifa esa kapital joylashtirilgan ob'ektni nazorat qilish huquqini emas, balki uzoq muddat imtiyozli (birinchi navbatda) daromad olish huquqini beradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi shu o'rinda yana bir guruhni -"bo'lak investitsiyalar"ni ajratib ko'satadiki, bular asosan xalqaro zayomlar va bank depozitlaridan iboratdir.

XX asr boshida yetakchi kapitalistik mamlakatlarda erkin kapitallar juda katta miqdorda yig'ilib qoldi. Gap shundaki, raqobat tadbirkorni kapitalni saqlab qolish uchun uni doimo kengaytirib borishga majbur qiladi, u bunga jamg'armani tobora ko'paytirib borish orqaligina erishishi mumkin.

Imtihon savollari

1. Xalqaro savdoni rivojlantirijda Xeksher Olsen nazariyasi
2. Leont'ev paradoksining xalqaro savdoni shakllantirishdagi o'rni
3. M.Porterjeng raqobat bardoshlik nazariyasi
4. Kondrat'evning uzun to'lqinlar nazariyasini xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojini aniqlashdagi roli
5. A.Smitning absolyut ustunlik nazariyasi
6. D.Rikarza va D. Millning nisbiy ustunlik nazariyasi
7. S.Kuznesning investisiya davriyligi nazariyasini xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdagi o'rni
8. Xalqaro savdoni rivojlanishining xozirgi davrdagi o'zita xos xususiyatlari
9. Xalqaro kapital bozorini rivojlanishi imkoniyatlari
- 10.COVID-19 pandemiyasi davrida iqtisodiy beqarorlikning xususiyatlari
- 11.Pandemiyani oldini olishga qaratilgan goralar samaradorligi (davlatlar kesimida)
- 12.Xalqaro moliya institutlarinig xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdagi o'rni
- 13.Jahon savdo tashkilotining xozirgi davrdagi xususiyatlari
- 14.Jahon iqtisodiyotining tarmoq tarkibi
15. Transmilliy korporatsiyalar va ularning xususiyatlari
16. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning asosiy shakllari
17. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o'rni
18. Globallashuv va jahon iqtisodiyotidagi global muammolar
19. Jahon valyuta tizimining evolyusiyasi: asosiy bosqichlari
20. Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanish xususiyatlari
21. Xalqaro mehnat migratsiyasi va uning xususiyatlari
- 22.Rivojlanayotgan mamlakatlarni sanoatlashtirish nazariyalari
- 23.Jahon savdosи rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va uning ko'rsatkichlari
- 24.Xalqaro savdo nazariyalari
25. Valyuta kursi va valyuta bozori

26. Kapitalning xalqaro migratsiyasi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari
27. Migratsiyaning ishchi kuchi eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri
28. To‘lov balansi va uning tarkibi
29. O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi roli qanday o‘zgarib bormoqda va bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?
30. O‘zbekistonning jahon savdo tashkiloti (JST) a’zoligiga kirish jarayoni va bu jarayonning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri qanday bo‘lishi mumkin?
31. O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari kimlar va ularning mamlakat eksport-import jarayonlariga ta’siri qanday?
32. O‘zbekistonning Xitoy bilan savdo va investitsiya aloqalari qanday rivojlanmoqda va bu mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta’sir qilmoqda?
33. O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a’zolik masalasi bo‘yicha xalqaro va ichki iqtisodiy munosabatlar qanday shakllanmoqda?
34. O‘zbekiston iqtisodiyotida xalqaro moliyaviy tashkilotlarning (Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va boshqalar) o‘rni va roli qanday?
35. O‘zbekistonning global qiymat zanjirlariga qo‘shilishi qanday amalga oshmoqda va bu mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda qanday imkoniyatlar yaratadi?
36. O‘zbekistonning energetika sektoridagi islohotlari va "yashil energetika" sohasidagi xalqaro hamkorliklar qanday ijobiy natijalar berishi kutilmoqda?

Kirish imtihonlari natijalarini baholash mezonlari

Imtihonni baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi.

JAMI 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

- | | |
|---------------------------|------------|
| 1-savolga javob: maksimal | – 25ball; |
| 2-savolga javob: maksimal | – 25 ball; |
| 3-savolga javob: maksimal | – 25 ball; |
| 4-savolga javob: maksimal | – 25 ball. |

Har bir savol bo‘yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog‘liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish iqtidori to‘la ko‘rinsa;
- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o‘zgarishlar bilan o‘zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to‘g‘ri yoritilgan;
- o‘z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda eta olgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to‘liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga

a'lo baho qo'yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, *yaxshi* baho qo'yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, *qoniqarli* baho qo'yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, biron ta ham savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun *qoniqarsiz* baho qo'yiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
6. Alimov A., Kurbanova M., Abdullayeva Sh. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. Darslik. – T.: "Extremum press", 2017. – 801 b.
7. Арапова Е. Китай: международное взаимодействие в условиях внутренних вызовов // Мировая экономика и международные отношения. – 2018. - №6. С. 77-85.
8. Александров Е.Л., Круглов В.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебное пособие. – М.: Финансовый университет, 2017. – 112 с.
9. Белов А.В. Япония: экономика и бизнес: Учебное пособие. – Санкт-Петербург: Издат-во Санкт-Петербургского государственного университета, 2017. – 383 с.
10. Белозеров С.А., Сутырин С.Ф. Экономика Японии: учебник / Под ред. С.А. Белозерова. – Санкт-Петербург: Издат-во Санкт-Петербургского государственного университета, 2021. – 436 с.
11. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўкув қўлланма. / и.ф.д., проф. А.В. Вахабовнинг умумий таҳрири остида. –Т.: "Молия", 2010. – 328 бет.
12. Вахабов А.В., Таджибаева Д.А. Хажибакиев Ш.Х. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Ўкув қўлланма. / и.ф.д., проф. А.В. Вахабовнинг умумий таҳрири остида. –Т.: "Молия", 2011. -708 бет.

13. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Рахманов Ш.. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Ўқув қўлланма. / и.ф.д., проф. А.В. Вахабовнинг умумий таҳрири остида. –Т.: “Ворис”, 2014. -326 бет.
14. Vaxabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik / A.V.Vaxabov, D.A.Tadzhibayeva, Sh.X.Xajibakiyev – Toshkent: Baktria press, 2015. – 584 b.
15. Ермолаева Н.М., Мировая экономика и международные экономические отношения: Учеб. пособие / Ермолаева Н.М. – М.: Аспект Пресс, 2018. – 312 с.
16. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник / В.К. Ломакин. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва : Юнити-Дана, 2019. – 688 с.
17. Магистерская программа «Мировая экономика». Методическое пособие: «Актуальные вопросы содействия международному развитию» / Под общей редакцией А. Р. Маркова. – М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2024. – 96 с.
18. Международные экономические организации. Учебник / Под редакцией С. Н. Сильвестрова. – Москва: Издательство Юрайт, 2017. — 245 с.
19. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник для академического бакалавриата / под ред. А. И. Погорлецкого, С. Ф. Сутырина. – М.: Издательство Юрайт, 2016. – 499 с.
20. Мировая экономика: учебник для вузов / Б. М. Смитиенко [и др.]; под редакцией Б. М. Смитиенко, Н. В. Лукьянович. – 5-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 442 с.
21. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник для вузов / О.В.Игнатова [и др.]; под редакцией О. В. Игнатовой, Н. Л. Орловой. – Москва: Издательство Юрайт, 2024. – 315 с.
22. Мировая экономика и международные экономические отношения: современное состояние, проблемы и основные тенденции развития: учебное пособие / Е.Д. Фролова [и др.]; под общ. ред. Е.Д. Фроловой, С.А. Лукьянова. – Екатеринбург: УрФУ, 2016. – 184 с.
23. Островская Е.Н., Панова А.Ю., Грибановская С.В. Мировая экономика и международные отношения: учебное пособие. – СПб.: РГГМУ, 2020. – 202 с.
24. Поспелов В.К. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. – М.: ИНФРА-М, 2019. – 370 с.
25. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь-декабрь 2022 года / Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. – Ташкент, 2023. – 526 с.
26. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь-декабрь 2023 года / Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. – Ташкент, 2024. – 517 с.
27. Экономика стран Юго-Восточной Азии. Учебник / Под редакцией Мазырина В. М. Москва: АНО «Наука», 2020. – 424 с.

28. Экономический рост в странах Востока: тенденции, неравномерность, неравенство социального развития. Коллективная монография в 2-х книгах / Ответственный редактор И. В. Дерюгина. – Москва: ИВ РАН, 2020. – 280 с., 288 с.

29. Хасбулатов Р. И. Международные корпорации в мировой экономике. Учебник. — М.: Юрайт. 2020. – 396 с.

30. Хасбулатов, Р. И. X24 Мировая экономика: учебник для бакалавров / Р.И.Хасбулатов. – М.: Издательство Юрайт, 2015. – 884 с.

31. World Economy and International Business: Theories, Trends, and Challenges / ed. by A.Bulatov. – Contributions to Economics. – Springer, Cham, 2023. – 830 p.

Internet resurslar

32. <https://stat.uz/>

33. <https://www.imf.org>

34. <https://www.data.worldbank.org>

35. <https://www.oecd.org>

36. <https://www.stat.go.jp>

37. <https://www.globalinnovationindex.org>

38. <https://www.economist.com>

39. <http://www.chusho.meti.go.jp/>

40. [www.unctad.org.](http://www.unctad.org)

41. www.itd.org

42. <http://www.adb.org>

43. [www.ft.com.](http://www.ft.com)